

ARAB TILINI O‘QITISHDA KOMMUNIKATIV METODDAN FOYDALANISH

Sapashov Zulfiqar Atabaevich

Oriental universiteti Lingvistika (arab tili) 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20663234>

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy arab tili metodikasida an’anaviy grammatik-tarjima yondashuvidan voz kechib, kommunikativ til o‘qitish metodikasini joriy etish masalalari tahlil qilinadi. Arab tilidagi diglossiya muammosi hamda xalqaro olimlar tadqiqotlari asosida lisoniy ta’limni optimallashtirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida arab tilini kommunikativ o‘qitishdagi muammolar va ularning raqamli texnologiyalar vositasidagi yechimlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: lingvodidaktika, kommunikativ kompetensiya, diglossiya, integratsiyalashgan model, funksional grammatika, raqamli integratsiya.

Globalashuv jarayonlarining jadallashishi va arab dunyosining xalqaro iqtisodiy, madaniy hamda diplomatik maydondagi nufuzi ortishi arab tilini chet tili sifatida o‘qitish metodikasini tubdan isloh qilishni taqozo etmoqda. Zamonaviy lingvodidaktikada uzoq yillar hukmronlik qilgan grammatik-markazlashgan yondashuvlar bugungi kun talabasi ehtiyojlarini qondira olmayapti. Real hayotiy muloqot talablari ta’lim jarayonini real vaziyatlarga yaqinlashtirishni, ya’ni kommunikativ metodni keng joriy etishni talab qilmoqda. Kommunikativ metod nafaqat til qoidalarini yodlatish, balki o‘rganuvchida muayyan ijtimoiy-madaniy kontekstda tilni amaliy qo‘llash ko‘nikmasini, ya’ni kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi [1].

Kommunikativ metodning fundamental asoslari 1970-yillarda Dell Xayms tomonidan ishlab chiqilgan “kommunikativ kompetensiya” konseptiga tayanadi. Xayms N.Xomskiyning akademik “lingvistik kompetensiya” tushunchasini kengaytirib, tilni bilish shunchaki strukturaviy qoidalarni bilish emas, balki ulardan ma’lum ijtimoiy vaziyatda, o‘z vaqtida va joyida foydalana olish qobiliyati ekanini isbotladi. Rushdiy Ahmad Tuaymaning ta’kidlashicha, ushbu metodning bosh maqsadi diqqat markazini shunchaki “til haqidagi ilm”dan (knowledge about language) tilni turli ijtimoiy kontekstlarda “qo‘llash mahorati”ga ko‘chirishdir [2]. Arab tili kontekstida kommunikativ kompetensiya lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi. Lingvistik kompetensiya fonetika, morfologiya va sintaksisni amaliy qo‘llashni anglatrsa, sotsiolingvistik kompetensiya muloqotdoshning yoshi va jinsiga qarab mos shaklni tanlashni taqozo etadi. Masalan, erkak kishiga (كيف حالك؟ - Ahvolingiz qalay?) deb murojaat qilinsa, ayol kishiga nisbatan (كيف حالك؟ - Ahvolingiz yaxshimi?) shakli ishlatiladi. Diskursiv kompetensiya nutq va matnlarni mantiqiy bog‘lash mahoratidir, strategik kompetensiya esa nutqiy uzilishlarni muqobil leksika yoki imo-ishoralar orqali bartaraf etish qobiliyatidir.

Arab tilini o‘qitishda kommunikativ yondashuv o‘ziga xos murakkablikka ega, bu – diglossiya (adabiy til – *al-Fusha* va jonli lahjalar – *al-Aammiyya* o‘rtasidagi farq) hodisasidir. Beyrut Amerika universiteti professori Mahmud al-Batal an’anaviy ta’limdagi adabiy til va dialekt o‘rtasidagi “ajratuvchi devor”ni tanqid qilib, talabalarni faqat Zamonaviy adabiy til bilan cheklash ularni hayotda “sun’iy muloqotchi” qilib qo‘yishini ta’kidlaydi. Olim tomonidan taklif etilgan “Arabic as One Language” integratsiyalashgan modeli adabiy til bilan birga muayyan hududiy lahjani parallel o‘qitishni ko‘zda tutadi va bu yondashuv dunyoning yetakchi universitetlarida qo‘llanilayotgan “Al-Kitaab” darsliklarida o‘z aksini topgan. Shuningdek, Jorjtaun universiteti professori Karin Rayding klassik qoidalar va o‘ta lisoniy shevalar o‘rtasidagi oltin vosita sifatida “Rasmiy og‘zaki arab tili”

konsepsiyasini ilgari suradi. Uning fikricha, grammatika muloqot ehtiyojidan kelib chiqib, kontekst ichida funksional grammatika tamoyili asosida induktiv usulda o'rgatilishi lozim.

An'anaviy grammatik-tarjima metodi qadimiy matnlarni chuqur tahlil qilishga yordam bersa-da, jonli muloqotda psixologik to'siqlarni keltirib chiqaradi. Ushbu metodda til qoidalar va tuzilmalar majmuasi sifatida deduktiv tarzda o'rgatilsa, kommunikativ metodda til muloqot va axborot vositasi sifatida induktiv yondashuv asosida o'zlashtiriladi. An'anaviy usulda izolyatsiyalangan so'zlar ro'yxati va ularning quruq tarjimasini, shuningdek, o'qish va yozish ustuvorligi og'zaki nutqni chetda qoldiradi. Kommunikativ metodda esa lug'at boyligi semantik maydonlar va kontekstli iboralar shaklida berilib, tinglab tushunish hamda gapirish ko'nikmalari birinchi navbatda rivojlantiriladi. An'anaviy grammatik-tarjima metodida har qanday xato qat'iy tuzatilib, aniqlikka urg'u berilsa, kommunikativ metodda muloqot mazmuni va nutq ravonligi birinchi o'ringa chiqadi. Eng muhimi, o'qituvchi mutloq rahbarlikdan fasilitator va moderatorlikka, talaba esa passiv qabul qiluvchidan darsning faol subyektiga aylanadi.

Kommunikativ metodni sinfda muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun faqat gapirish imkonini berish yetarli emas, balki nutqqa bo'lgan real ehtiyojni yaratish lozim. Buning uchun, birinchidan, axborot yetishmasligi mashqlari tavsiya etiladi. Bunda talabalarga ma'lumotlar bo'lingan holda beriladi (masalan, birida poyezd jadvali, ikkinchisida narxlar) va ukalar muloqot orqali axborotni to'ldirishadi. Ikkinchidan, rolli o'yinlar va simulyatsiyalar yordamida bozor, dorixona yoki aeroport kabi real vaziyatlarni modellashtirish lisoniy xavotirni kamaytiradi va ijtimoiy-madaniy xushmuomalalik shakllarini o'rgatadi [3]. Uchinchidan, “Focus on Form” (FFI) yondashuviga ko'ra, grammatika butunlay inkor etilmaydi, balki muloqot jarayonida yuzaga kelgan ehtiyoj asosida induktiv tarzda matn ichida umumlashtiriladi.

O'zbekistonda arab tili o'qitish sifatini yangi bosqichga ko'tarishda ushbu metod elementlaridan keng foydalanilmoqda. Tadqiqotchi M.Radjabova taklif etgan “optimallashtirish va birlashgan metod” dars davomida to'rtala nutqiy ko'nikmani (o'qish, yozish, gapirish, tinglash) integratsiyalashgan holda rivojlantirishni ko'zda tutadi [3]. Biroq, milliy ta'lim tizimida kommunikativ metodni to'liq joriy etishda bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etishda ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalar bilan integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi [4]. Arab tilini o'qitishda kommunikativ metoddan foydalanish shunchaki yangi pedagogik uslub emas, balki ta'limi falsafasining tubdan yangilanishidir. Mahmud al-Batal, Karin Rayding va Kassem Vahba kabi jahon olimlarining konsepsiyalari hamda mahalliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, lingvistik va pragmatik muvozanatni saqlash, darsda talaba gapirish vaqtini (STT) oshirish hamda raqamli resurslardan unumli foydalanish kutilgan samarani beradi. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ushbu metodologik yangiliklarni tizimli joriy etish mamlakatimizning arab dunyosi bilan strategik, iqtisodiy va madaniy aloqalarini yangi bosqichga olib chiquvchi raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashning bosh omilidir. Kommunikativ metod – bu arab tili mo'jizasini nafaqat kitoblarda, balki jonli muloqotda kashf etishning eng samarali yo'lidir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 2012. – B. 154.
2. طعيمة، رشدي أحمد. تعليم العربية لغير الناطقين بها. – الرباط: إيسيسكو، 1989. – ص. 164.
3. Radjabova M.Sh. Arab tilida yozuv malakasini rivojlantirishda til ko'nikmalari integratsiyasining o'ziga xos xususiyatlari ... – T., 2024. – B. 45.
4. Yorqin Shukurov. Artificial intelligence in personnel training: strategies for optimizing the educational process. 2026.

